

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2017-2022 YILLARDAGI TADBIRKORLIK SOHASIDAGI MUHIM ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI KO'RSATKICHLARI

Abdiyeva Muxlisa Ulug'bek qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Alimjonova Iroda Alimjon qizi
Guliston davlat universiteti talabasi

Abstract: O'zbekistonda 2017-yildan boshlab biznesni ro'yxatga olish jarayoni osonlashtirildi. Natijada ro'yxatga olingan tadbirkorlik sub'ektlari soni 2017-yilda 229,6 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil so'ngiga kelganda 555,9 mingtaga yetdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 2,4 barobar ko'paydi. So'nggi yillarda respublikada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yildi.


Kalit so'zlar: Tadbirkorlik sub'ektlari, natija, soliq stavkasi, soliq turlari, soliq tekshiruvi, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi, kichik tadbirkorlik sub'ektlari, oilaviy tadbirkorlik, islohotlar, eksport.

Kirish:

O'zbekistonda 2017-2022 yillarda tadbirkorlik sohasidagi muhim islohotlar va ularning natijalari, tadbirkorlik sub'ektlarining sonining katta o'sishi, biznesni ro'yxatga olish jarayonining osonlashtirilishi, soliq stavkalari va turlarining pasayishining aniqligi, oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi va eksportning kengayishi kabi asosiy o'zgarishlarni ko'rsatdi. Bu jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va maqolalari bilan qo'llanma holatiga keltirildi va respublikada tadbirkorlik sohasida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu islohotlar tadbirkorlik sektoriga yangi imkoniyatlar ochdi va mamlakat ekonomikasining kuchayishiga olib kelgan.

Tahlil va Natija:

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab biznesni ro'yxatga olish osonlashtirildi. Natijada ro'yxatga olingan tadbirkorlik sub'ektlari soni 2017-yilda 229,6 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil so'ngiga kelganda 555,9 mingtaga yetdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 2,4 barobar ko'paydi.





1-rasm. 2017-2022- yillarda O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar natijasi.

So'nggi yillarda respublikada tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va jadal rivojlantirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Masalan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2017-yilda 5% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelganda 1,5% gacha pasaytirildi. 2017-yilda soliq turlari 13 ta edi. Ular 9 tagacha kamaytirildi. 2017-2022 yillar oralig'ida soliq tekshiruvi turlari 10 taga qisqardi va 13 tadan 3 tagacha kamaydi.

Ma'lumot uchun: Soliq Kodeksiga ko'ra, soliq organlari quyidagi soliq tekshiruvlarini o'tkazadi:

- kameral soliq tekshiruvi;
- sayyor soliq tekshiruvi;
- soliq audit.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 2016-yilda 20% ni tashkil etgan bo'lsa, soliq tizimida olib borilgan islohotlar natijasida, 2023-yilning 1-yanvaridan ushbu soliq stavkasi 12% ga tushirildi.

2022-yil yakunlariga ko'ra, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni 2017-yildagiga nisbatan Toshkent shahrida 2 barobar ortib, 106 mingtaga, Toshkent viloyatida 2,3 barobar ortib, 49,1 mingtaga, Samarqand viloyatida 2,9 barobar ortib, 47,9 mingtaga yetgan.

Islohotlar oilaviy tadbirkorlik rivojida hammuhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarning hayotga tatbiq etilishi tufayli 2018-2022 yillar mobaynida oilaviy korxonalar soni 2 barobar oshdi. Natijada xususiy biznes va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksportdagi ulushi 29,5% ga yetdi.

Xulosa:

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab biznesni ro'yxatga olish jarayoni osonlashtirildi va tadbirkorlik sub'ektlarining soni katta o'sib, soliq stavkalari va soliq turlari pasayib ketdi. Oilaviy tadbirkorlik rivojida islohotlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi va xususiy biznes va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksporti katta o'sdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror.
2. O'zbekiston Respublikasining rasmiy ma'lumotlari.

НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



3. Tadbirkorlik sohasidagi muhim islohotlar va ularning natijalariga oid PMTI mutaxassislari tomonidan tuzilgan tadqiqotlar.
4. Khujaev, O., Obidjanov, D., Tursunov, O., & Nazarova, O. (2021, December). Types and composition of diseases and pests of restructured forest and pasture plants in the dry part of the Aral Sea. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 939, No. 1, p. 012084). IOP Publishing.
5. Nazarova, O., Khujaev, O., & Jumanazarov, G. (2023, March). Septoria (Septoria pistaciae Desm.) pathogen infecting pistachio nuts in Uzbekistan and its biological characteristics. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1142, No. 1, p. 012051). IOP Publishing.
6. Dilafruz, Y., Odina, N., & Otabek, K. (2023). EFFECT OF THE FUNGUS STIGMINA CARPOPHILA (LEV) ON ALMOND FRUIT WEIGHT. American Journal of Technology and Applied Sciences, 16, 1-3.
7. Xolmanova, Z. (2020). Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va maqolalari.